Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy...

I-SHO‘BA

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Tohirov Farruhbek Baxtiyorovich
TDIU Andijon fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini rivojlantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi va ushbu jarayonning samarali tashkil etilishida bir nechta muhim omillar qay darajada ahamiyat kasb etishi va istiqboldagi samarali jihatlar haqida ilmiy fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy texnologiya, ilg‘or pedagogik texnologiya, axborot texnologiya, raqamli texnologiya, metod, vitual- stend, internet, xalqaro tajriba, kredit-modul tizimi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы внедрения новых и передовых педагогических технологий в развитие системы образования Республики Узбекистан, а также значимость ряда важных факторов в эффективной организации этого процесса и перспективы на будущее.

Ключевые слова: современные технологии, передовые педагогические технологии, информационные технологии, цифровые технологии, метод, виртуальный стенд, интернет, международный опыт, кредитно-модульнаясистема.

Abstract: The article of the education system and the introduction of new and advanced technologies in the development of this process is effective in the creation of a number of important factors, and how important and effective approach for the future of scientific opinions and comments about the coverage.

Keywords: modern technologies, advanced pedagogical technologies, information technologies, digital technologies, method, virtual stand, internet, international experience, credit-module system.

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta’lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta’limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta’limning barcha turlariga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Ta’lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta’lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ma‘lumki dunyodagi mavjud barcha jamiyatning kelajagi, taraqqiyoti ta‘lim tizimining qay darajada taraqqiy etgani bilan belgilanadi. Shu boisdan ham, hozirda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan ildam borayotgan davlatimizning uzluksiz talimni isloh

Published: 28.03.2024

Cite this article: Tohirov Farruhbek Baxtiyorovich (2024). Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Emro Science and Education, 1(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/151

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

qilish va takomilashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani ham sir emas. Ta‘lim-tarbiya jarayoni murakkab jarayon hisonlanadi. Uning murakkabligi shundaki, modernizatsiya sharoitida ta’limning samaradorligiga erishishdir, samaradorlikka erishish esa ko‘plab omillar, xususiyat va tendensiylar bo‘lishini talab etadi [1].

Birinchi navbatda, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchida motiv shakllanganligi, ularning orasida o‘zaro munosabat faollik nuqtai nazaridan bog‘langanligi, ta’lim oluvchi yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga harakatda bo‘lishi, ta’lim beruvchi esa darsni tashkil etishda uning mukammalligiga, to‘gri tashkil etilishiga, metodika esa talabga javob beradigan darajada tuzilganligi kabi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim.

Yurtboshimiz tashabbuslari bilan yangi davrga qadam qo‘yilayotgan bir davrda keng fikrlash doirasiga ega , bilimlarni chuqur egallagan, o‘z sohasida yetuk va davr talabiga javob beraoladigan shaxslarga bo‘lgan etibor va talab kuchayotgani yana bir karra, modernizatsiyalangan ta’limni va sifatli tashkil etilgan ta’limni joriy etish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Shu sababli ham, bilimdon, tashabbbuskor, jamiyatda faol va o‘z mehnatida bilan dunyoni zabt etaoladigan shaxs shaklllantirilishi lozim.

O‘ylaymanki, hozirgi davr nuqtai nazaridan kelib chiqib bunday talablarga javob bera oladigan va yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirishda quyida mezonlarni tashkil etilish muhim ahamiyat kasb etadi:

- ♣ Zamonaviy va ilg‘or ta’lim texnologiyalari
- ♣ Raqamli texnologiya + zamonaviy va ilg‘or pedagogik texnologiya
- ♣ Xalqaro tajribalar

Avvalo ta’lim texnologiyalari haqidagi tushunchaga urg‘u bersak, ta’lim texnologiyalari ta’lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, o‘quv materiallarini tanlash va strukturalashdan, ta’lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tashkil topganligi uning tub mohiyatini ochib beradi. Vaholangki, optimallik va samaradorlik darajasini noan’anaviy usullarini ta’limga olib kerish va uning ilg‘origini ta’minlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tashkil etishga zamin yaratadi [2].

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyati shundan iboratki, u mavjud texnologiyalari bilan bir safda turadi, buning sababi har bir texnologiya o‘zining metodi, shakli, uslubi va qo‘llanish doirasiga egaligidir. Ammo ta’kidlab o‘tilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tubdan farq qilib, ular murakkab va tushunish ancha chigal bo‘lgan kompleks tushuncha yoki pedagogikaga xos bo‘lgan bilimlar sohasini aniq va tushunarli ifoda eta olishi bilan mavjud texnologiyalardan farq qiladi. **Masalan,** “Klaster” metodi , “3X4” metodi, “Bumerang” metodi, “Iyearxiya”

metodi, “Muammoli ta’lim” metodi , “Keys stadi” metodi va bu metodlarni ko‘plab davom ettirishimiz mumkin. Quyida keltirib o‘tilgan metodlar ta’limda joriy etilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar turkumi bo‘lib, ularning maqsadi bilimlarni puxta egallashga ko‘mak berish, samaradorlikni ta’minlash ongni yuksalshtirish va talabalarni har xil vaziyatlarga moslashuvchanligini ta’minlashdir [3].

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan birgalikda birlasha oladi, o‘z mazmun mohiyatini boyitib boradi va ta’lim jarayonida samarali yondashuvning yangi imkoniyatlarini ochib bera oladi. Bunga misol tariqasida axborot texnologiya, raqamlitexnologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unlashuvini misol qilib keltirish mumkin. Fikrimizni oydinlashtiradigan bo‘lsak, axborot texnologiya,raqamli texnologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unlashuvi «O‘quvchi - kompyuter-simsiz tarmoqlar (internet) – Pedagog» o‘rtasidagi muloqot deb atash mumkin. Bular yangi davr pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, u ta’lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida qo‘llana boshlandi.

Ta’lim berish va ta’lim olishning zamonaviy turi keng jamoatchilikka havola etilmoqda ya’ni masofaviy ta’limda ta’lim olishga muvaffaq bo‘lindi, albatta masofaviy ta’limni biz «Talaba- kompyuter-simsiz tarmoqlar (internet)-pedagog»larning uyg‘unlashuvisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu kabi dars mashg‘ulotlarini yo‘lga qoyilishida raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Biz albatta, simsiz tarmoqlari, internet tarmoqlari va albatta kompyuter texnologiyalar bilan darsni maqsadini ushbu sharoitda amalaga oshirdik. Bu esa hozirda ta’limdagi eng zamonaviy yondashuv hisoblanib, shu sabadan ham ta’limda yangicha yo‘nalish olib kira oldik desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Masovafiy ta’limdan tashqari raqamli texnologiya-axborot texnologiya - zamonaviy pedagogik texnologiyani uyg‘unlashuviga dastur ilovalarorqali darsni tashkil etish haqida ham ko‘plab ma’lumotlar keltirish mumkin. Hozirda joriy etilgan va boshqa o‘quv yurtlarida tashkil etilayotgan «online jurnal» dasturini, videokonfrensiyalar o‘tkazishni, «videotopishmoq» ta’lim texnologiyasini va virtual stendlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shu o‘rinda virtual stend tushunchasiga tushuntirish beradigan bo‘lsak, virtual stend – o‘quv amaliy stendi yoki o‘quv-malaka ustaxonasi bo‘lib, o‘quvchi- talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma’lum yo‘nalishda zaruriy ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Virtual stendlar har bir o‘quvchi-talaba uchun texnikaga o‘zining kirish parametrlarini «buyurishga», o‘z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Ta’limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so‘z yuritar ekanmiz, unda yana bir muhim omil xalqaro tajribalar o‘zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq albatta. Xalqaro, chet el tajribasi ya’ni ta’limda o‘z yo‘nalishiga va uslubiga ega bo‘lgan davlatlarning ilg‘or tajribalarini olib kirish hozirda mamalakatimiz davlatsiyosati oldida turgan maqsadlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Birobarin, “O‘zbekiston Respublikasi Xalq tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” sini tasdiqlanishi buning yaqqol isbotidir. Ushbu konsepsiya O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida tasdiqlandi, shu bilan birga O‘zbekiston respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytengi bo‘yicja jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishishiga erishish yana birustuvor maqsaddir, shuningdek

♣ uzluksiz ta’lim mazmunini sifat jihatdan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

♣ o‘qitish metodikasinini takomillashtirish, ta’lim tarbiya jarayonida individullashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish,

♣ xalq ta’limi sohasidagi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi vazifalarni bajarish odinga maqsad qilib qo‘yildi va vazifalarni bajarish bo‘yicha ilk qadamlar tashlanmoqda.

Yana bir xalqaro tajribalarni joriy etish doirasida, Koreya davlatining tajribasi olib kirildi bu tajriba barchaga ma’lum bo‘lgan kredit-modul tizimidir. Ushbu kredit-modul tajribasi Koreya davlatida yaxshi samara berganligi sababdan ham, bu xalqaro va ilg‘or tajriba ayrim oliy o‘quv yurtlarimizda tashkil etildi. Va o‘quv yurtlarida ta’lim kredit-modul tizimini joriy etish bilanoq, ta’limda sifatni yanada yaxshilanganligini ko‘rish mumkin.

Darhaqiqat bu kabi o‘z sinovidan o‘tgan va yaxshi samara beradigan xalqaro tajribalar bundan keyin ham o‘zlashlashtirib boriladi va umid qilamanki, ta’lim tizimimizni modernizatsiya qilishda o‘zining samaradorligibilan namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni PF-5538 son. 05.09.2018 yil.

2. N.Muslimov, Z.Raximov, X.Qodirov “Ta’lim texnologiyalari” darslik. Toshkent-2017. 11- bet.

3. M.F. Hakimova, N.X. Xo‘jayev, D.Q. Axmedov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma.– T.:TDIU nashr., 2006 y, 52-53-betlar